

**MIFLAR - IBTIDOIY MADANIYATNING NEGIZI, OLAMNI IDROK
ETISHNING ILK ASOSIY VOSITASI, BADIY TAFAKKURNING IBTIDOSI**

Ahrorova Niginabonu Anvar qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

ahrorovanigina@buxdpi.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada miflar va ularning taraqqiyot davri, insoniyat taraqqiyotida tutgan o'рни ,mifologik maktablar, olimlarning asarlarida keltirilgan misollar. Bundan tashqari qadimgi odamlarning qarashlari negizida paydo bo'lgan miflarga misolla va mifshunos olimlar haqida ma'lumotlar berilgan.Renessans davrining mifologiyaga qanday aloqasi borligi, mifologik maktablarning shakllanish va miflar haqida ingliz va o'zbek olimlarining fikrlari keltirilgan.

Tayanch so'zlar: Mif, epik tafakkur, folklore, mifologiya, ko'p xudolik, arxaik, antropogenetik miflar, tasavvur, fetishizm, animism, yunon miflari, adabiyot.

Annotation: In this article, myths and their period of development, their place in the development of humanity, mythological schools, and examples given in the works of scientists. In addition, examples of myths that arose based on the views of ancient people and information about mythologists are given. The relationship of the Renaissance to mythology, the formation of mythological schools, and the opinions of English and Uzbek scientists about myths are presented.

Key words: Myth, epic thought, folklore, mythology, polytheism, archaic, anthropogenetic myths, imagination, fetishism, animism, Greek myths, literature.

Аннотация: В данной статье мифы и период их развития, их место в развитии человечества, мифологические школы и примеры приведены в трудах ученых. Кроме того, приведены примеры мифов, возникших на основе взглядов древних людей и сведений о мифологах. Представлено отношение Ренессанса к мифологии, формирование мифологических школ, мнения английских и узбекских ученых о мифах.

Ключевые слова: Миф, эпическая мысль, фольклор, мифология, политеизм, архаика, антропогенетические мифы, воображение, фетишизм, анимизм, греческие мифы, литература.

Mif – insoniyat ma'naviy taraqqiyotining ilk bosqichiga xos so'z san'atining boshlang'ich namunasi. U behad qadimiy so'z san'ati bo'lib, o'zida juda uzoq o'tmishda yashagan ibtidoiy ajdodlarimizning hali yozuvni bilmagan, tevarak-atrofdan yuz berayotgan voqeliklar mohiyatini ilg'amagan davrlarda paydo bo'lgan. Ibtidoiy insonlar zamonidagi turish-turmush, dunyoqarash va e'tiqodiy tushunchalarni o'z mazmuniga singdirgan.

Miflar ibtidoiy madaniyatning negizi, olamni idrok etishning ilk asosiy vositasi, badiiy tafakkurning ibtidosi edi. Barcha folklor janrlari singari miflarda ham so'z etakchi o'rinni egallaydi. Mifning ijodkori – xalq. Faqat unda ibtidoiy insonlarninggina bilimi, ruhiy kechinma va tushunchalari aks etadi. Ijod qilinish jarayoni g'ayrihuuriy holda kechgan. Anonim ijodkorning o'zi tushunmagan hodisani talqin etish, uni bilishga va tushunishga intilish istagi asosida g'ayriixtiyoriy tarzda ijod qilingan miflarda eng qadimgi folklor xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Miflar qat'iy kompozistiyaga ega emas. Shuningdek, ular professional ijrochilikka asoslanmaydi. Uni bilgan kishi o'zi istagan shaklda zarur o'rinda aytaveradi. Mana shuning uchun miflar keng ommalashmagan va ommaviy ijro etiluvchi janr emas.

Miflar axborot beruvchilik vazifasini bajaradi. Ular ko'pincha biror voqea-hodisaning kelib chiqishiga (masalan, quyoshning paydo bo'lishiga) kishilarni ishontirish maqsadida aytiladi. Shuning uchun uning bayon qilinishida aytuvchining pafosi muhim ahamiyat kasb etadi.

Epik tafakkurning tadrijiy taraqqiyoti nuqtai nazaridan qaraganda, folklordagi barcha janrlardan oldin, ayniqsa, afsonalardan oldingi stadial bosqich sifatida shakllanganligi ta'kidlanadi. Buni ularda faqat xalqimizning eng qadimgi mifologik tasavvurlari talqin etilgani, tarkibida inson personaj mutlaqo ishtirok etmagani, voqelik mifologik obrazlar orqali yoritilgani bemalol asoslaydi.

O‘zbek miflari syujet tarkibini turkiy va boshqa xalqlar mifologiyasi bilan bog‘liq ko‘plab qadimiy motivlar tashkil etadi. Shunga ko‘ra, ularning mazmun-mundariyasi rang-baranglik kasb etadi. Deyarli barcha miflarning syujeti bir yoki ikki epizoddan iborat bo‘ladi. Syujet voqealari ko‘pincha tugundan boshlanadi. Miflar, asosan, eng qadimgi davr folklorining ilk bosqichida yaratilgan. Shuning uchun ular qadimgi davr folklori tizimidan o‘rin egallagan.

Jahon xalqlari folklorida miflar alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, jahon antik adabiyotini o‘rganishda mifologiya muhim vosita vazifasini o‘taydi. Negaki, antik adabiyot mifologiya asosida yuzaga kelgan. Shuni e‘tiborga olib, rus adibi M.Gorkiy —adabiyotning boshi – folklor, —mifologiya xalq badiiy faoliyatining alohida badiiy ustqurmasi ekanini alohida ta‘kidlaydi.

Mif yaxlit janr sifatida og‘zaki ijodga mansub nasriy asarlar tizimida to‘liq holda saqlanib qolmagan. Faqat epos, ertak, afsona, qo‘shiq, topishmoq, marosim folklori, irim-sirimlar va turli ishonchlar bilan bog‘liq aytimlar tarkibida ayrim mifologik syujet elementlari uchraydi, xolos. Ana shu mif qoldiqlarini, mifonim va mifologemalarni o‘rganish uchun muhim zamin vazifasini o‘taydi.

G‘arb va Sharqning o‘z mifologiyasi bo‘lsa-da, ular bir-biridan keskin farq qilmaydi. Hatto grek mifologiyasi bilan Markaziy Osiyo xalqlarining islomga qadar bo‘lgan miflari o‘rtasida o‘xshashliklar borligi aniqlangan.

Umuman, har ikki mintaqa folklori va adabiyoti uchun mushtarak hodisa bu mifologiya, asotirlar zaminida badiiy adabiyot namunalarning yaratilganligidir. Bir so‘z bilan aytganda, miflar qadim adabiyotning shakllanishi uchun katta zamin bo‘lgan.

Ko‘p xudolilik talqini asosida yaratilgan yunon mifologiyasida Uran ilk xudo, Geya undan keyingisi sifatida tasvirlanadi. Ularning birlashuvidan Kron, Okean, Reylar tug‘iladi. Kron bilan Peya birlashuvidan yana boshqa xudo avlodlari yuzaga keladi. Zevs ulardan biri bo‘lib, katta bo‘lgach, otasini taxtdan tushiradi va uning taxtini egallaydi. Olimp tog‘ida yashovchi xudolarning Xudosi bo‘lib olgan Zevs o‘z hukmronligiga qarshi chiqqan xudolarni ayovsiz jazolaydi. Hokimiyatni qattiq qo‘llik

bilan boshqaradi. Tabiatning Chaqmoq, Bulut kabi hodisalarini boshqargan osmon ilohi Zevs dunyoda tartib o'rnatishga uringan. U titanlar o'rniga Zevs saltanatini bunyod qilgan. Yunon miflarida erda dastlab dahshatli mahluqlar: devlar, oyoqlari o'rnida bahaybat ilonlar bilanglab turgan gigantlar, kattaligi tog'day yuz-qo'lliklar, peshonasi o'rtasida bittagina chaqchaygan ko'zi bor vahshiy kiklop (stiklop)lar, er va osmonning dahshatli bolalari – qudratli titanlar yashagani hikoya qilinadi. Yunonlar gigantlar va titanlar obrazida tabiatning yovuz kuchlarini gavalantirganlar.

Antik adabiyotda miloddan ilgarigi XII asrda so'qir ijodkor Gomer tomonidan yaratilgan «Iliada» va «Odisseya» dostonlarida mifik obrazlar silsilasi alohida o'rin tutadi.

Folklorshunos B.Sarimsoqov o'zbek mifologiyasi taraqqiyotini uch bosqichga – arxaik, mumtoz va o'rta asrlarga xos miflarga bo'linadi, deb hisoblaydi. Uning ko'rsatishicha, arxaik miflarda xaos bilan kosmos o'rtasidagi kurash keng miqyosda aks etadi va ko'proq animistik, totemistik tasavvurlar bu kurashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuningdek, ularda yana hech qanday diniy qarashlar unsuri uchramaydi. Mumtoz miflarda esa xaos bilan kosmos kurashining miqyosi biroz toraygan bo'ladi. Politeistik diniy qarashlar (ko'p xudolilik tasavvuri) ustunlik qiladi. Zardushtiylik davri mifologiyasi bunga misol bo'ladi. O'rta asrlar miflarining semantik asosini monoteistik diniy qarashlar tashkil etadi.

Miflar odamning voqelikka nisbatan ongsiz emotsional munosabati ifodasi bo'lib, tabiat va jamiyat hayotining turli qirralari mohiyatini tushuntiruvchi eng qadimiy tasavvurlar silsilasidir.

Mifologik tasavvurlar muayyan voqelik mohiyatini xayoliy uydirma vositasida izohlasa-da, miflar yaratilgan va ommalashgan joyda o'z ijodkori va ijrochilari tomonidan hayotda bo'lib o'tgan haqiqiy voqealar bayoni sifatida qabul qilingan. Qadimiy odamning olam to'g'risidagi tasavvurlarini o'zida aks ettirgan va avloddan avlodga yetkazishga mo'ljallangan miflarning ommalashish usullari ham turlicha. Ular, asosan, og'zaki ijro orqali hikoya qilingan. Mifologik tasavvurlar ibtidoiy urf-odat va marosimlarning asosini tashkil etuvchi ramziy xatti-harakatlardan iborat ritual

o‘yinlar sifatida ham namoyish qilingan. Qadimiy tasavvurlar asosida yaratilgan osori-atiqalar hamda xalq hunarmandchiligi namunalaridagi ramziy chizgilarda ham mifik syujetlar aks etgan.

Mif quyidagi turlarga bo‘linadi:

ibtido haqidagi miflar (olamning yaratilishi va yerda hayotning paydo bo‘lishi to‘g‘risida);

samoviy miflar (osmon jismlari va tabiat hodisalarining paydo bo‘lishi haqida);

antropogenik miflar (g‘ayrioddiy xislatga ega afsonaviy pahlavonlar: Gerakl, Gilgamesh, Odami Od, Hubbi va boshqalar);

sig‘inish – e‘tiqod miflari (muayyan e‘tiqodiy ishonchlar bilan bog‘liq: xreildorlik, suv, o‘simlik, olovga sig‘inish haqida);

etnogenetik miflar (urug‘-qabilalarning kelib chiqishi bilan aloqador: 92 o‘zbek urug‘larining paydo bo‘lishi);

kalendar miflar (yil, oy, kun hisobi bilan bog‘liq: ayamajuz, ahmandahman, chilla, to‘qson hisobi bilan bog‘liq miflar);

esxatologik miflar (olamning intihosi haqidagi: oxirzamon to‘g‘risidagi miflar).

Ibtidoiy inson o‘zini tabiiy olamdan aniq ajrata bilmagan, shu bois tabiiy obyektlarga o‘z insoniy xususiyatlarini ko‘chiravergan - tabiiy obyektlar inson kabi hayot kechiradi, ulaming insondagi kabi his-tuyg‘ulari bor, ongli, ma‘lum maqsadga yo‘naltirilgan xo‘jalik faoliyatini yuritadi, deb bilgan. Shuningdek, inson ibtidoiy bosqichda mavhum fikrlashni bilmagan. Mifning barcha turlari manbai ana shu fikrlashda. Fetishizm, animizm va totemizm kabi e‘tiqodlar ham aslida atrof muhitni “insonlashtirish”dan kelib chiqqan. Turkiy miflar ham ayni shu xususiyatlar va jarayonlarni bosib o‘tgan.

Miflar, mifologik taffakkurning insoniyat tarixidagi ulkan ahamiyati hech kimga sir emas. ”Fan mifdan tug‘ilmaydi, - deb yozgan edi taniqli faylasuf olim A.F. Losev, - ammo mifsiz ham yashay olmaydi. Zero, fan doimo miflashgan”. Mifologik mushohadalarning badiiy ifodasi og‘zaki ijod namunalari hamda ayrim mifologik obrazlar mohiyatida bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan.

“Mifologik tafakkur tasavvur hukmronligida paydo boʻlgan tafakkurdir, - deydi Ya. Golosovker. - Tasavvur oddiy faoliyat natijasi emas, balki oliy tafakkur shakli, ayni paytda ham ijod, ham bilim xususiyatiga ega boʻlgan shakldir. Bu hodisa mifologik obrazlar tabiatiga ham xos. Shuning barobarida xalqimiz tasavvurida mifologik obrazlar (dev, jin, yalmogʻiz kampir, pari, humo, qaqnus, semurgʻ va boshqalar) bilan bogʻliq bir qancha anʻana-odatlar, marosimlar hamda xalqimiz tarixining muhim sahifasi boʻlib kelayotgan arxeologik topilmalar, etnografik maʼlumotlar mavjudki, bu mazkur obrazlar faqatgina badiiyat mahsuli emas, balki oʻzlarining tarixiy asosiga ega ekanligidan ham dalolat beradi. Shunga muvofiq, mifologik obrazlarning tarixiy ildizlarini oʻrganish, ularning mifologik va tarixiy xususiyatlarini xalq ogʻzaki ijodi va yozma manbalar asosida qiyosiy tahlil etish oʻrinlidir.

Tarixi eski, katta millatlarda asotirli, yaʼni mifologik manbalar juda moʻldir. Bu jihatdan boy va mahobatli tarixga ega boʻlgan turkiy xalqlarning qadimgi yodnomalari katta qiymatga ega. Oʻtgan asrlar davomida koʻp harakatli katta urushlar, begona madaniyatlar va begona dinlar bilan munosabatlar turkiy xalqlar asotirlariga bir qator taʼsir koʻrsatdi. Bu taʼsirlarning izlari, turkiylar madaniyatining barcha sohalarini qamrab olgan holda aytish mumkinki, xitoyliklar, hindlar va eronlar bilan munosabatlarda boʻlgan koʻkturklarda va uygʻurlarda hamda toʻgʻri janubga tushayotib arablar bilan duch kelib qolgan shumerlarda koʻrinadi. Oltoyliklar, yoqutlar, hatto qirgʻizlar yuqoridagilar bilan qiyoslanilsa, hali-hanuz taʼsirlardan xolidirlar. Lekin har qalay bu munosabatlar namunalarga boy, manbalari koʻp, tangrilari oʻziga xos boʻlgan turkiy xalqlar mifologiyasining qiyofasini oʻzgartira olmadi. Boshqa bir qator millatlarning madaniy hayotida keng oʻrin egallagan mifologik tasavvurlar, obrazlar va asotirli mavzular esa turkiy xalqlar madaniyati taʼsirida shakllangani shak-shubhasizdir.

MANBALAR RO‘YXATI

1. Aristotel “Поэтика” / Пер. М. Л. Гаспарова. — Аристотель. Сочинения: В 4-х т.. — М.: Мысль, 1983.
2. Jovliyev B.H “Badiiy asarda mifopoetik talqin va badiiy obraz” 10.00.08 PhD dissertatsiya
3. Losev A.F. “Диалектика мифа”. — М.: Правда, 1990
4. Losev A.F. “История античной эстетики”. М., 1969, с. 151 и сл., 6664 и сл. Библиография: с. 707 сл.
5. M. Jo‘rayev. Folklorshunoslikka kirish. T., 2006.
6. Meletenskiy E. “Поэтика мифа”. М. 1976 й. 18 бет.
7. Platon “Соб. соч. в 3-х тт. Т.3 (1). М., 1971г.
8. Toropov V.N “Миф. Ритуал.Символ. Образ: Исследования в области мифопоэтического: Избранное «Прогресс» — «Культура», 1995.
9. Yung.K.G. [“ Об архетипах коллективного бессознательного” - Москва: Директ-Медиа, 2007](#)
10. Yo‘ldoshev S “Turkiy folklorda mifologik obrazlar” bitiruv malakaviy ish, 2016
11. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi –O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti(2000-2005)
12. Rajabov D.Z.” The role of images in the artistic structure of uzbek folk songs”,2021, Journal Middle European Scientific Bulletin, volume 12,
13. Ahrorova N,” The collected myths of a group of people”
https://scholar.google.com/scholar?cluster=10350961352370301658&hl=en&as_sdt=0,5&scioq=ahrorova+nigina#:~:text=Integration%20Conference%20on%20Integration%20of%20C2%A0%E2%80%A6%2C%202022%20%2D%20conferenceseries
14. **Ahrorova Nigina ,MIF – OLAM HAQIDAGI QADIMGI ODAMNING ILK TASAVVURLARI ”,International Journal of Education, Social Science & Humanities, <https://doi.org/10.5281/zenodo.7823724>**

15. Ahrorova N. A ,Rajabov D.Z. ,THE CONNECTIONS AND DIFFERENCES BETWEEN MYTHOLOGY AND FOLKLORE ,JournalNX- A Multidisciplinary Peer ReviewedJournal ,SSN No: 2581 - 4230 ,VOLUME 9, ISSUE 4, April. -2023

16. www.wikipedia.uz